



SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISHNING ILMIY
VA NAZARIY ASOSLARI

Aytbayeva Jadra Begaliyevna

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs
talabasi aytbaevaj540@gmail.com*

Normurodov Shaxobiddin Zayniddinovich

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari haqida ma'lumot berilgan. Shaxs sog'lom va har tomonlama barkamol shakllanishi uchun unda o'qishga intilish hissini takomillashtirish bilan cheklanib bo'lmaydi. Ular ongida kasb - hunar va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini tarbiyalash bilan o'z vatani va xalqiga nisbatan sadoqatni shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini, huquqiy ongini tarbiyalash lozim. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da madaniy - estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda o'quv bilim yurtidan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ta'kidlangan hamda ta'lim sifatini yaxshilash, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, o'quvchi, sinfdan tashqari ish, to'garak, tarbiyaviy ish.

Sinfdan tashqari ta'limni urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, Respublika hududlari talablari asosida tashkil etib, uning tarmog'ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh qilish kun tartibida turgan dolzarb masaladir.

Hozirgi paytda yangi pedagogik va ahborot texnologiyasi qonuniyatlari asosida pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalaridan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormoqdalar. Shuning bilan birga bu, bir joyda to'xtab turuvchi jarayon emas.

Ushbu «Talablar» barcha o'quv maskanlaridan tashqari ta'lim muassasalari o'quv - tarbiyaviy ishini rejalashtirishda dastur va uslubiy materiallar, metodik qo'llanmalar, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini yo'lga qo'yish shakllaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi.

O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.



Maktab va sinfdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinfdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim: pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish; ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) mohir qo'llar to'garaklari;
- v) duradgorlik to'garaklari;
- g) sport to'garagi;
- d) badiiy havaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi.

Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi.

Ularni dunyo qarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;
- sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;
- umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin:

tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

- tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;
- tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;



- tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;
- sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir.

Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir.

Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifatlarga duch keladilar.

Shuning uchun ham o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi.

Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar.

Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi.

Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi.:

Maktabdan tashqari bolalar ta'lim tarbiyaviy muassasalarining bola tarbiyasidagi roli beqiyos katta ahamiyatga ega bo'lib, bunday muassasalarni asosan 2-turga ajratish mumkin:

1.Keng profilli, ya'ni ko'p xil ta'lim- tarbiya va madaniy oqartuv ishlarini olib boradigan bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari (o'quvchilar uylari, saroylari, bolalar klublari, madaniyat uylari qoshidagi bolalar sektorlari, bolalar maydonlari, yozgi dam olish lagerlari va boshqalar;



2. Tor profilli bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari –ya'ni ma'lum bir sohada bolalar bilan ta'lim-tarbiya va madaniy oqartuv ishlari olib boradigan muassasalar: (bolalar kutubxonalari, yosh tabiatshunoslar, bolalar teatrlari, bolalar ijodiy uylari, bolalar turizmi, ekskursiyasi, bolalar qo'g'irchoq teatrlari, bolalar temir yo'llari, bolalar stadionlari, sport maydonlari, muzika maktablari va boshqalar.

Maktabdan tashqari bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari, ta'lim-tarbiya sohasidagi muassasalargina bo'lib qolmasdan, balki sinfdan, maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning metodik markazi bo'lib ham hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar sistemasida maktab va maktabdan tashqari muassasalari, jamoatchilik, mahalla qo'mitalari va oqsoqollari bilan o'zaro hamkorlik qilishi ijtimoiy va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda va ularni kompleks hal etishda maktablardagi, gimnaziya, kollej va litseylardagi ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchisi ham alohida o'rin egallaydi. Uning bolalar ta'lim-tarbiya muassasalari, sinf rahbarlari, va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

O'quvchilarni har tomonlama etuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi: Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish.

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator kishilarni kiritish mumkin:

Tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish. Tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash. Tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash. Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlashdan iborat.

Sinfdan, maktabdan tashqari ishlarda quyidagi tarbiyaviy tadbirlar muhim o'rinni egallaydi:



a) siyosiy axborotlar;

b) o'quvchilarning ishlab chiqarish ilg'orlari, atoqli kishilar bilan uchrashuvlari;

v) fan to'garaklari; g) klublar, o'lkani o'rganish to'garaklari, maxsus to'garaklar jismoniy, madaniy sport to'garaklari, maktab mashg'uloti, sinfdan tashqari kitobxonlik va boshqalar.

Sinfdan tashqari ishlarning maqsadi – ona tili darslarida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, ona tilining fonetika, grammatika, morfemika, sintaksiz, so'z birikmasi, so'z, gap kabi tushunchalari bilan yaqindan tanishish, muntazam ravishda ona tiliga muhabbatni uyg'otish va uni amalda to'g'ri qo'llay oladigan ongli komil insonni tarbiyalashdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodkorlik darajasiga ko'tarish talab qilinadi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari ishlar darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari ishlar 1-2 - sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi.

Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17 -20 daqiqasi ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni asosiy maqsadi o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirish, darsda olingan bilimlarni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan "sinfdan tashqari ish" deyilganda o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlarni ikki turini farqlash mumkin. Uning birinchi turiga rejadagi materiallarni o'zlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash tushunilsa, ikkinchi turi esa ona tilini o'rganishga qiziquvchi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar kiradi.

Ma'lumki birinchi turdagi mashg'ulotlar hozirgi kunda mamlakatimizning barcha mamlakatlarida mavjud. Bunday mashg'ulotlarni bilimlar darajasi bir-biriga yaqin 3-4 o'quvchidan iborat kichik guruhlarda haftada 1-2 marta o'tkazish mumkin. Odatda sinfdan tashqari ishlar deyilganda ko'proq ikkinchi turdagi mashg'ulotlar nazarda tutiladi va ular asosan o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

O'quvchilarda ona tiliga va uning tadbiqlariga qiziqish uyg'otish, o'quvchilarning ona tilidan reja bo'yicha olgan bilimlarini kengaytirish, o'quvchilarda ilmiy tekshirish xarakteridagi malakalarini oshirish, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, o'quvchilarda tilshunos olimlar va tarixiy materiallar haqida tasavvurlarini kengaytirishdan iborat.

Bu maqsadlarni bir qismi darsda amalga oshiriladi, ammo dars vaqti chegaralanganligi tufayli qolgan qismini sinfdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi.

1. Tayyorlov bosqichi. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun „STI mashg'uloti" deb yuritiladi.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi.



3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalari mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi.

Sinfdan tashqari ishlar darslarining xususiyatlari, birinchidan, sinfdan tashqari ishlar tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

Ona tilidan sinfdan tashqari olib boiladigan ishlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Uning ta'limiy ahamiyati shundaki, o'quvchi bu jarayonda qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Tarbiyaviy ahamiyati esa nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish, nutq odobini tarbiyalash singarilarda o'z ifodasini topadi.

Xulosa

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor urinbosari o'z ishini reja asosida olib boradi va uning bajarilishini nazorat qiladi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, bolalar yetakchisi, ota-onalar qo'mitasi ish rejalarini e'tiborga olishi kerak. Maktabdan va sinfdan tashkari o'tkaziladigan barcha tadbirlarni muntazam ko'rib baxolaydi.

Direktor o'rinbosarining ish rejasi maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Ishni rejalashtirishda bolalarning yosh xususiyatlariga, maktab joylashgan viloyat, shahar, tumanning shart-sharoiti, an'analari, xususiyatlarini joylardagi ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari qayta tayyorlov kurslarida o'z malakasini oshirib boradi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan xujjatlar ro'yxati xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berilib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimo I. A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T.: 2008 yil
2. Karimov I.A. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O'zbekiston 1992-62 b.
3. Karimov I.A. «Yangi uyni qurmay turib, eskisii buzhang» – Toshkent: O'zbekiston 1993. – 24
4. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot-pirovard maqsadimiz». 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
5. «O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – Toshkent: Sharq, 1997-65 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8- dekabrda 997-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF5712-sonli farmoni.



8. Qudratova, S., & Tilovboyeva, S. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TAHSIL OLUVCHI TALABALARGA ZAMONAVIY BILIMLAR BERISH. Modern Science and Research, 3(12), 378-382.

9. Baxtiyorovna, S. Q., Bahodirovna, B. M., & Farangis, T. (2025). TARBIYA DARSLARIDA OQUVCHI VA OQITUVCHINING OZ USTIDA ISHLASHI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 3(2), 127-130.

10. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar. Xalq ta'limi, 2020. 3- maxsus son, 37-43 bet.

11. Kuznetsova Marina Ivanovna, " PIRLS 2021 xalqaro solishtirma tadqiqoti doirasida o'qish savodxonligini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari 2021y.

12. <http://www.markaz.tdi.uz>

13. www.ziyonet.uz